

Kitob, mening do'stimsan



Zafar Diyor she'ri
Avaz Mansurov musiqasi



- 1** Yosh o'ynoqi ko'zlarim
Shuur olar kitobdan.
Tashkil topib so'zlarim
Baxtim kular kitobdan.

NAQAROT:

Shuning uchun deymanki,
Kitob, mening do'stimsan. } **2 marta**

- 2** Varaqlasam bir betdan
Quv nab, baxtim ochilgay.
Oltin harf so'zlardan
Totli ma'no sochilgay.

NAQAROT



- 3 Oq betingga elimning
Baxtnomasi bitilgan.
Barcha fanlar ilmning
Gul naqshiga tikilgan.

NAQAROT

- 4 Bugun seni millionli
Yoshlar olgay qo'liga.
Ishtiyoq-la kirgaylar
Fan gulshani yo'liga.

NAQAROT



1. Qo'shiq nima haqida ekan?
2. Nima uchun kitobni do'st deb ataymiz?
3. Siz qanday kitoblarni yoqtirasiz?
4. Kitob haqida yana qanday qo'shiqlarni bilasiz?

